TARKIBIDA OG'IR METALLAR SAQLOVCHI OZIQALAR BILAN OZIQLANTIRISHNING QUYONLARING MAHSULDORLIGIGA TA'SIRI

Kamalova Surayyo Hasan qizi
Qoraqalpoq davlat universiteti I bosqich magistranti

Qabul qilindi: 22.10.2025
Ko'rib chiqildi: 23.10.2025
Tasdiqlandi: 24.10.2025

Odatda mavjud oziqalardan va uning tarkibidagi ayrim tuyimli moddalardan samarali foydalanishda ularing hayvonlar mahsulotlariga transformatsiyalanish koeffitsientini oshirish yo'li bilan erishilishi qayd qilingan. Buning uchun albatta, ratsion tarkibidagi quruq modda va almashinuvchi energiya darajasi, hayvonlar organizmining yuqoridagi tuyimli moddalarga bo'lgan extiyojini qondirish darajasidan yuqori bo'lishi zarur. Faqat shunday bo'lgan taqdirdagina, oziqalar tarkibidagi to'yimli moddalaring yuqori darajasi, hayvonlar organizmi tanasida ushbu moddalaring zahirasi sifatida o'tirishi mumkin.

Quyonlarni asosiy oziqlantirish ratsionlari tarkibidagi hajmli oziqalar tarkibidagi hazmlanuvchi oqsil va almashinuvchi energiyaning konsentratsiyasini yetarlicha bo'lmasligi hamda ular tarkibida katta miqdorda tolali moddalaring, ya'ni kletchatka darajasining yuqori bo'lishi ulardan foydalanish samaradorligini pasaytirib yuboradi.

Shu bois, og'ir metallar bilan ifloslangan oziqalar bilan oziqlantirishning quyonlaring mahsuldorligiga ta'sirini o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Tajribalar davomida turli miqdorda og'ir metallar saqlovchi dag'al oziqalar bilan oziqlantirilgan quyonlaring tirik massasining o'zgarishiga ta'sirini o'rgandik (1-jadval).

1-jadval

Tajribadagi quyonlar tirik vaznining o‘zgarishi

T/r	Ko’rsatkichlar	Tajriba davrlari		
		Nazorat	I tajriba	II tajriba
1	Tajribaning boshida, kg	1.4	1.4	1.4
2	Tajribaning oxirida, kg	2.9	2.2	2.4
3	Tajriba davomida olingan o’sish, kg	1.5	0.8	1.0

Tadqiqot natijalariga ko’ra, tajriba davomida quyonlaring tirik massasi ratsion tarkibidagi og’ir metallaring miqdoriga mos holda o’zgarishini kuzatdik. Nazorat guruhi quyonlari tajriba guruhi quyonlariga nisbatan ekologik jihatdan sof oziqalar bilan oziqlanganligi bois, tirik massasi ancha salmoqli va ma’lum darajada og’ir bo’lganligi kuzatildi.

Tajriba davomida olingan o’sish nazorat davrida 1,5 kg ni tashkil etgan bo’lsa, tajriba davrlarida I - 0,8 va II - 1,0 kg ni tashkil etdi. Bizning nazarimizda, tajriba quyonlari tirik vaznining 0,2% ga kam bo’lishi ular organizmidagi yog’lar almashinuvining buzilganligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda hayvonlar mahsuldorligining talab darajasida bo’lishi uchun albatta ratsion tarkibidagi oziqalaring ekologik jihatdan sofligi ta’minlanishi kerak, ular tarkibidagi makro va mikroelementlaring miqdori norma darajasida bo‘lishini ta’minlanishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Викторов П.И. Методика и организация зоотехнических опытов // - М. Агропромиздат, 1991. - С 38-65.

2. Георгиевский В.И. Физиология с.-х. животных // М. Колос. - 1991. 591 с.

3. Кашкина Т.А. Влияние тяжелых металлов на биохимические процессы в организме // Матариалы науч. прак. конфр. ГБОУ СПО «БПК», г. Благовещенск, 2012. - С. 43-46.

4. Xamraqulov R., Karibayev K.K. “Qishloq xo‘jalik hayvonlarini oziqlantirish Toshkent, 1999. 27-31 b.